

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA INTERFAOL USULLAR

Parpiyev Odil Olimovich

Qo'qon universiteti Ta'lif kafedrasi katta o'qituvchisi.

Adhamjonova Muniraxon Akmaljon qizi

Qo'qon universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada bashlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida o'quvchlarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishga bag'ishlangan uslubiy tavsiyalar bayon qilingan. O'qish savodxonligi darsligidagi o'quv materiallaridan kelib chiqib, ta'lif jarayonida o'quvchilarini o'ylashga, fikrlashga undovchi o'quv topshiriqlarini berish, ularning fikrlash doirasini kengaytirishga oid masalalar dalillar asosida isbotlab berilgan.

Kalit so'zlar: metod, usul, uslub, darslik, pedagogik texnologiyalar, interfaol, guruh, jamoa, interfaol o'yin.

Ta'lif davlat siyoatining ustuvor sohasiga aylangach, boshlang'ich ta'lif rivojiga alohida e'tibor qaratildi. Darsliklarning yangi avlodi qulay, ixcham, tasviriy ifodalarga boy bo'lib, o'quvchilarini kengroq fikrlashga undaydigan qilib yaratildi. Ta'lif jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, tahlil qilish va amaliyotda joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish kerakligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va kam vaqt sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Darslarni ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan darslar bolalar ongini, fikrlashini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Bizga ma'lumki, so'zlashuv til, nutq o'stirishning dastlabki bosqichi hisoblanib, u sekin-asta rivojlanib boradi hamda o'qigan matnlarni og'zaki hikoya

qilishda namoyon bo'ladi. O'quvchilarni so'zlashuvga o'rgatish dars jarayonida amalga oshiriladi. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini me'yorlashda adabiy tilning ohangdorlik ya'ni ravon o'qishning amaliy ahamiyatini o'stirish, adabiy til me'yori va mezonlariga rioya qilish, o'qish metodlarini shakllantirish, takomillashtirish yo'llarini izlash va eng qulayini amaliyotga tadbiq qilish zarur. Bugungi kunda o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar nutqi va tushunish salohiyatlarini oshirish uchun quyidagi usullardan foydalanishimiz mumkin:

Usul: Yarim ovoz bilan o'qish

Usul: Matndan nigohini olib o'qish

Usul: Tezlashib o'qish

Usul: Juftlikda o'qish

Usul: Tez aytish tempida o'qish

Tez atishga o'xshatib bir nafasda o'qish, chuqur nafas olib.

Usul: Baland tovushda o'qish

Usul: Jonli tasvirlash

Ikkita o'quvchi o'qiydi, biri turib imo ishora bilan ko'rsatadi.

Usul: Gapdagi so'zlarni ketma ket o'qish. So'ng teskarisini o'qish.

Masalan: Aziza kitob o'qidi – O'qidi kitob Aziza.

Usul: Tanlab o'qish.

Interfaol so'zi ighizcha "Interact" so'zidan olingan bo'lib, "inter" – birgalikda o'zaro, "act" harakat qilish degan ma'noni bildiradi. Interfaol metodlar o'zaro harakat o'quvchilarning faolligi, guruh tajribasiga tayanish, qayta bog'lanish tamoyillariga aoslanadi. Masalan bir qancha interfaol metodlarni ko'rib chiqamiz.

"Do'stimga xat" mashqi. Bu mashq ona tili, o'qish savodxonligi darslarida qo'llanilib, yozma nutqni mustahkamlashda, birgalikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda yaqindan yordam beradi. Bu mashq juftlikda bajariladi. Ikkita partadoshga A4 qog'ozining $\frac{1}{4}$ qismi beriladi. Bo'lim yuzasidan, yoki mavzuga mos savol tuziladi. Savol yozilgan qog'ozni boshqa partadoshga beriladi. Bu o'yinda o'quvchilar juftlikda ishlashadi. O'zaro savol-javob o'tkaziladi.

Masalan, O'qish savodxonligi darsligida (3-sinf 1-qism) berilgan "Yaxshilik"

hikoyasida o'quvchilar juflikda ishlaydilar. Ya'ni 2 partadoshga A4 qog'ozni to'rtga bo'lib, ikkisiga ham $\frac{1}{4}$ qismi beriladi va o'quvchilarga o'tilgan mavzu yuzasidan bittadan savol tuzishlari aytildi. O'quvchilar tuzib bo'lgan savollarini bir-birlari bilan almashishadi va savollarga javob beradi.

1- o'quvchi: Fazliddin o'rtog'i bilan o'ynab yurib kimni ko'rib qoldi?

2- o'quvchi: Nima uchun Normat bobo jilmayib qo'ydi?

O'quvchilar shu kabi savollar tuzib bir-birlari bilan almashib savollarga javob beradi.

"Quvnoq harflar". Bu o'yinni o'tkazish uchun she'r 3-4 marta o'qiladi. She'rdagi so'zlar bosh harfi doskaga yoziladi. Shu tariqa she'r yod olinadi. Masalan, "Mahallamiz jarchisi" she'rini tez yod olish uchun

Shoxda, shaqillar Hakka

Mehmon kelyapti aka

Sh Sh H

M K A

Tez pishiring palovni

T P P

Burab qo'ying mo'ylovni

B Q M

O'qish savodxonligi (3-sinf 1-qism) darsligidagi "Hunarning hidi qanaqa?" she'rini tez yod olishlari uchun qo'llashimiz mumkin.

Har hunarning o'zicha,

H H O'

Bordir hidi - belgisi.

B H B

Nonvoxonadan kelar,

N K

Xamirturushning isi.

X I

"Mozaika". Bu o'yinda o'quvchilar 4 kishilik kichik guruhga bo'linadi.

O'qituvchi "Kuz" manzarasi tasvirlangan rasmlı konvertlarni tarqatadi. O'quvchilar mozaika usulda ularni yig'adilar. Bu metoddan o'quvchilarning matn tuza olish qobiliyatini rivojlantirish uchun foydalanishimiz mumkin. Masalan, O'qish savodxonligi (3-sinf 2-qism) darsligida berilgan "O'lkamizda qish" mavzusini o'tishda bu usulni qo'lladik. Bunda o'quvchilar 3 guruhga bo'lindilar va ularga "Qish" manzarasi tasvirlangan konvertlar berildi. O'quvchilar mozaika usulda ularni yig'ib, hosil bo'lgan rasmga mos matn tuzdilar.

"Qofiyadoshni top" o'yini. Bu o'yinda so'zlar qog'ozga yozib o'quvchilarga beriladi. Ular qofiyadoshini topadi. Masalan: boy-poy, hoy-soy, joy-toy, boy-loy, moy-choy. Masalan, o'qish savodxonligi (3-sinf 2-qism) darslidagi "Qish qori bilan" she'ridagi qofiyadosh so'zlarni topishda bu usulni qo'llash yaxshi samara berdi. She'rdagi qofiyadosh so'zlar quyidagilar: viqor-qor, toza-soz-a, uchqunlari-unlari, asta-havasda, ko'rakam- ko'klam.

"Ma'nodoshni top" o'yini. Bu o'zin orqali o'quvchilarning lug'at boyligi oshiriladi. Masalan: Vatan, qo'rg'on, diyor, o'lka, maskan. O'qish savodxonligi (3-sinf 1-qism) darsligida berilgan "Vatan madhi dillarda" mavzusini o'tishda o'quvchilar Vatan so'zining ma'nodoshlarini yozdilar: Vatan, diyor, qo'rg'on, o'lka, maskan.

Dars jarayonida interfaol metodlarni qo'llash natijasida o'quvchilarda berilgan muammodan to'g'ri xulosa chiqarish, tanqidiy fikrlay olish, jamoada ishslash ko'nikmalari shakllantiriladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. M.E.Tirova. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. I qism.–Toshkent "Novda Edutainment", 2023-81 b.

2.U.B. Aydarova, N.K.Azizova, M.E.Tirova. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. II qism.–Toshkent "Novda Edutainment", 2023-80 b.

3.Mannonova Muxarramabonu, & Odiljon Parpiyev. (2023).

AUDIOLINGVAL METODNING AFZALLIKLARI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 882–887. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.749>

4.Muazzamxon Xodjayeva, & Odiljon Parpiyev. (2023). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QISH VA SAVODXONLIK DARAJASINI OSHIRISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING AHAMIYATI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 914–918. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.758>

5.Ochildiyeva Mushtariy, & Parpiyev Odiljon. (2023). BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 640–644. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.666>

6.Xushbaqova Zarnigor Javliyevna, & Odiljon Parpiyev. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA NUTQIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 645–650. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.667>

7.<https://www.pedagoglar.uz/index.php/ped/article/download/2154/695/747>

8.<https://kompy.info/interfaol-talim-metodlari.html>